



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## AYOLLARGA VA BOLALARGA QARSHI ZO'RAVONLIK

**Hayitboyeva Sevinchoy Xayrullo qizi**

*Toshkent shahar yuridik texnikumi*

*Yuridik xizmat faoliyati*

*02.08- guruh o'quvchisi*

**Annotasiya:** Mazkur maqola , ayollar va bolalarga qarshi zo'rvonlikning turo'li shakllarini , uning sabablari va oqibatlarini , shuningdek unga qarshi kurashda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va takliflar tahlil qiladi Bu masala , nafaqat huquqiy va ijtimoiy , balki axloqiy nuqtaiy nazardan ham muhimdir , chunki har bir insonning o'z huquq va erkinliklari bor.

**Kalit so'zlar:** jismoniy zo'rvonlik, psixologik zo'rvonlik, stress , depressiya, ishonchsizlik, o'zini past baxolash, zo'rvonlik, oilaviy zo'rvonlik, gender tenglik, deklaratsiyasi, konvensiya, ruhiy kasallik , tajovuz.

**Zo'rvonlikni to'xtatish faqat hukumatni emas,**

**Balki butun insoniyatning vazifasi-dir.**

**Kofi Annan**

**Barcha insonlar teng huquqlarga va sharafga ega.**

**Ular bir-birlariga hurmat va adolat asosida munosabatda bo'lishlari kerak.**

*Inson huquqlar umumjahon deklaratsiyasi 1- modda<sup>1</sup>*

Ayollar va bolalarga qarshi zo'rvonlik dunyo bo'ylab yuzaga kelgan eng jiddiy va keng tarqalgan muammolardan biridir. Bunday zo'rvonliklar jismoniy , ruhiy, iqtisodiy va jinsiy shakllarda bo'ladi , har bir zo'rvonlikda ham jabrlangan inson qadri qadsizlanadi. Ayollar va bolalar zaifligi va himoyasizligi sabab zo'rvonlikka uchrashadi, bu holatlar ularni sog'lig'iga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. **Zo'rvonlik faqat jismoniy va ruhiy zarar yetkazmaydi, balki jamiyatda adolat, teng, erkinlik prinsiplariga ham putur yetkazadi.<sup>2</sup>**

Bu muammlar faqat hukumatga tegishli emas, bu muammo butun bir jamiyatga tegishli . **Ayollar va bolalarga qarshi zo'rvonlik bir biriga o'xshamaydi ulay turfa xildir Ular orasida gender<sup>3</sup>** tengsizlik, ijtimoiy -iqtisodiy muammolar, oilaviy agressiyalar, ta'lim va tarbiya yetishmasligi kabi muammolar mavjuddir. Zo'rvonlikning oqibatlari jismoniy va ruhiy jihatdan og'ir hisoblanadi, ayollar va bolalarning sog'lig'iga ta'sir qiladi, ularda psixologik travmalarni keltirib chiqaradi

<sup>1</sup> <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-6848811>

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender\\_tengligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi)



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



.Ayollar va bolalar zo‘ravonlikdan kegin stress, depressiya va ruhiy kasalliklarga duchor bo‘ladi .Ayollar va bolalarga qarshi zo‘ravonlikni kamaytirish va oldini olish uchun qonunlar, qarorlar va shuningdek har bir insonning ma’suliyatli va ongli yondashuvi zarur .Bundan tashqari hukumat va xalqaro tashkilotlar zo‘ravonlikka qarshi kurashishda qonunlarni kuchaytirish va ijtimoiy yordamlarni kuchaytirmog‘i zarur. Shuningdek , gender tengsizlikka qarshi kurashish , oilaviy zo‘ravonlikka nisbatan kuchli choralarni ko‘rishi va zo‘ravonlikning ildizlariga qarshi doimiy kurashish kerak. Shundagina oz bo‘lsada jamiyatda ayollar va bolalarga qarshi zo‘ravonliklarni oldini olishimiz mumkin. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar va bolalarga ijtimoiy, moliyaviy, psixologik va huquqiy yordamni kengaytirmog‘imiz zarur. Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish xalqaro miqyosda katta e’tiborni ta’lab qiladi. Ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar mavjud, misol uchun: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, BMT ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qiluvchi agentlik va shuningdek Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi shular jumlasidandir.

Xususan BMT ayollar va bolalarning huquq va erkinliklarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi .Ushbu tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar kanvensiya va qoidalarga rioya qilishga majburm. **BMTning Bola huquqlari kanvensiyasi** bu kanvensiya 1989- yilda bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun tashkil qilingan . Shuningdek , BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi<sup>4</sup> ham ayollar va bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. **BMT ning UNICEFF<sup>4</sup> tashkiloti ham ayollar va bolalarning huquqlarini , erkinliklarini, zo‘ravonlikni oldini olish tengligini va bolalarning ta’lim olishini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan** .Ushbu barcha xalqaro normalar ayollar va bolalarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. O‘zbekiston hukumati ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarni oldini olish uchun ko‘plab chora tadbirlarni amalga oshirmoqda . Xususan, **Ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (2019)** . Ushbu qonun asosan oilaviy zo‘ravonliklarni oldini olishga **qaratilgan**<sup>5</sup>. Unga ko‘ra ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuningdek zo‘ravonlikka uchragan ayollarga ijtimoiy, psixologik yordam va huquqiy yordam ko‘rsatiladi . Bola huquqlari to‘g‘risidagi qonun (2019) bolalarning huquqlarini himoya qiladi , ularga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonliklarni oldini oladi . O‘zbekiston Ayollar va bolalarning huquqlari buzilganda yashirish holatlari uchraydi , shuning uchun ham O‘zbekistonda ayollar va bolalarga qilingan tajovuzlar yashirincha qolmoqda. Shuning uchun ham zamon o‘zgargani sari jamiyat uchun yangi qonun hujjatlari kerak bo‘ladi . Hozirgi kunda yurtimizda ayollar va bolalar hayotiga befarq qaralmaydi , ularning huquq va erkinliklari davlat organlari tomonidan taminlanadi va himoya qiladi.

**Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak:** ayollar va bolalarning huquq va erkinliklarini ta’minlaymiz deb doim aytib kelganmiz . Ularni huquqlarini ta’minlash uchun ko‘plab

<sup>4</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender\\_tengligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi)

<sup>5</sup> <https://lex.uz/acts/-4494709>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qonun hujjatlarini qabul qilganmiz . Shunday bo‘lishiga qaramasdan yurtimizda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik davom etmoqda , eng achinarlisi yashirin qolmoqda . Zo‘ravonlik haqida Rumiyning bir gapı bor **“Sevgi , eng yuksak qudratdir , unga qarshi ishlash esa faqat yuksaklikka erishgan qalbni zaiflashtiradi “**. Insonning qalbi qanchalik sof bo‘lsa u hech qachon yomonlik qila olmaydi . Uning bu qarashlari yoshligida berilgan tarbiyasida namoyon bo‘ladi . Vaholangki , farzand tarbiyani ota - onadan oladi , ota -ona farzandlari yoshligida ularning ko‘z oldida urushsa , hattoki shunday oilalar bor er xotinini uradi shunday muhitda ulg‘aygan farzand , kelajakda qanday voyaga yetadi sizningcha ? **“Qush inida ko‘rganini qiladi”<sup>6</sup> albatta.** Shuning uchun , jamiyatda mavjud zo‘ravonliklarni oldini olish uchun avvalo farzand tarbiyasidan boshlashimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Lex.uz sayti.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
- 3.Bola huquqlari to‘g‘risidagi kanvensiya
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ( yangi tahrir).

---

<sup>6</sup> O‘zbek xalq maqoli.

